

BUXORO AMIRLIGIDAGI 1917 VA 1918-YIL VOQEALARINING RUS TADQIQOTLARIDA YORITILISHI

Nuriddinova Aziza Ilhomovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti

Tel: +998906378622

E-mail: nuriddinova2298@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoroning so‘nggi amiri Said Olimxon davridagi holat, Buxoroning Rossiya bilan munosabatlari, Kolesov voqealari haqida ma’lumot keltiriladi. Shuningdek, Rossiya tomonidan Buxoro amirligiga nisbatan olib borilgan siyosat hamda “Yosh buxoroliklar” faoliyati haqida ham to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: “Очерк устройства центрального административного управление Бухарского ханства позднейшего времени”, А. F. Kerenskiy, P.N. Milyukov, Toshkent-Perovsk.

O‘zbekiston tarixida qariyb ikki asr vaqt mobaynida (1753-1920) o‘ziga xos davlatchilikni yaratgan mang‘itlar sulolasi alohida o‘ringa ega. Mang‘itlar sulolasi boshqargan Buxoro amirligi tarixi faylasuf, etnograf, adabiyotchilar va boshqa tadqiqotchilar tomonidan ilmiy ishlar, monografiya, risola va ilmiy maqolalar yaratildi. Mang‘itlar sulolasining so‘nggi vakili hisoblanmish Amir Olimxon 1881-yili Karmana shahrida tavallud topgan. Olimxon hayoti, faoliyati va uning hukmronlik davri nafaqat O‘zbekiston tadqiqotchilari balki xorij tadqiqotchilari tomondan ham keng o‘rganilgan. Shuni takidlash joizki, xorijda olib borilayotgan tadqiqotlarning hammasini ham ilmiy-nazariy, metodologik-uslubiy, siyosiy-mafkuraviy jihatdan bir xil baholashning imkoni yo‘q. Bunga sabab esa, Olimxon shaxsi va davriga nisbatan berilgan noto‘g‘ri fikrlar va qarashlar.

Amir Olimxon davri qator Rus tadqiqotchilari tomonidan o‘rganildi. Ayniqsa 1917 va 1918-yilgi Buxorodagi voqealar yuzasidan bir qator ishlar e‘lon qilindi. Jumladan, A.B. Vildanovanning “Подлинник Бухарского трактада о чинах и званиях Письменное памятники Востока”, hamda “Очерк устройства центрального административного управление Бухарского ханства позднейшего времени”, “Материалы по истории таджиков и узбеков Средний Азии ва Бухарский тракт о чинах и званиях и об обязанностях носителей их в средневековой Бухаре – “Советское востоковедение””, О.А. Yegonenko “Бухарский эмират в период протектората России (1868-1920 гг.) Историография проблемы”, А.И. Pilev “Политическое положение Бухарского эмирата и Хивинского ханства в 1917-1920 гг”, А. Karpeler “Россия-многонациональная империя”, М.И. Venyukov, М.А.

Terentev “История завоевания Средней Азии” kabi asarlarda Amir Olimxon davriga oid ma’lumotlar keltiriladi.

“Очерк устройства центрального административного управление Бухарского ханства позднейшего времени” asarida Amir Olimxon haqida quydagi ma’lumotlar keltiriladi, Olimxon 12 yoshga yetganida otasi tomonidan Sankt-Peterburgdagi 3 yil davomida harbiy muhandislik mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim olish uchun kadetlar korpusiga 1893-1896-yillarda yuboriladi. Buxoroga qaytgach esa, otasidan ikki yil davomida boshqaruv sirlarini o‘rganadi. Shuningdek, amirlikdagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy holat bilan yaqindan tanishadi. O‘n ikki yil davomida Nasaf viloyati hokimi vazifasini bajardi. Ushbu davrda Qashqadaryoda ko‘prik va madrasa qurdirdi. Valiahd sifatida 1910-yilda Karmana viloyati hokimi vazifasida ham faoliyat yuritdi. Buxorodagi 1910-yilgi voqealar va Abdulahadxonning vafot etishi, Amir Olimxonni siyosiy maydonga chiqardi. Amir Olimxon 1910-yil 24-dekabrda rasman taxtga o‘tirdi. 1910-yil 30-dekabrda Olimxon islohotlar dasturini qabul qildi.

Bir qancha islohotlar o‘tkazganiga qaramay Amir Olimxon davrida Rossiyaga qaramlik yanada ortdi. Rus hukumati uni doimiy tarzda qo‘llab-quvvatladi. Chunki amir Rossiyaga har doim katta sovg‘a- salomlar qildi. Birinchi jahon urushi paytida 1925-yil dekabrda Rossiya imperatori Nikolay II Amir Olimxonni general-leytenant xarbiy unvoni bilan taqdirlab, o‘zining general-adyudanti qilib tayinladi. Bunga asosiy sabab Amir Olimxon urush vaqtida Rossiyaga katta miqdordagi mablag‘ bilan moddiy yordam berdi. Biroq Buxorodagi vaziyat kundan-kunga yomonlashdi. Xalqning amirdan noroziligi kuchayib bordi. 1917-1920-yillarda Amir Olimxon zulmni kuchaytirib yubordi. Amir tomonidan taraqqiyparvarlar, ya’ni Yosh buxoroliklar qattiq tanqid qilindi. Bunga sabab esa, qo‘l ostidagi xodimlarning o‘zboshimchaligi edi.¹

1917-yil Rossiyadagi fevral voqealaridan keyin Buxoroda amir hokimiyatiga qarshiliklar kuchaydi. Amir Olimxon mamlakatda konstitutsion monarxiya va demokratik islohotlar o‘tkazish tarafdori bo‘lgan Yosh buxoroliklarni qattiq taqibga olgani va ularni jazolayotgani bunga sabab bo‘lgan edi. 1917-yil martida Fayzulla Xo‘jayevning Buxoro shahridagi hovlisida kengash chaqirildi. Unda Yosh buxoroliklar partiyasining elikdan ortiq faollari qatnashdi. Kengashda Fayzulla Xo‘jayev qatnasha olmadi. Kengashda Muvaqqat hukumat hamda ishchi va soldat deputatlari Petrograd Sovetiga murojatnoma tayyorlandi. Fitrat va Muso Yo‘ldoshev imzolagan ushbu telegramma 1917-yil 14-martda Petrograddagi Muvaqqat hukumat rahbarlari G. V. Lvov, A. F. Kerenskiy, M. V. Rodzyanskiy, A. I. Guchkovga yuborildi. Unda Yosh buxoroliklar chorizm asoratidan qutilgan ruslarni tabriklab, Buxoroda ham islohotlar qilinishi uchun amirni siqish uchun yordam so‘ralgan edi. Bunga javoban Petrograddan Rossiyaning Buxorodagi vakili A. Y. Miller va Said Olimxon nomiga telegramma

¹ Генис В. Разгром Бухарского эмирата в 1920 году // “Вопросы истории”, 1993. - № 7

yuborildi. Unda tezda Buxoroda islohotlar o'tkazish zarurligi keltirilgan edi. Biroq islohotlar o'tkazilmadi.²

Ko'p o'tmay Fayzulla Xo'jayev yangi mandagi telegramma tayyorladi va uni Fitrat hamda M. Saidjonov imzolari bilan Samarqand orqali Petrogradga jo'natildi. Bu bilan qanoatlanmagan Yosh buxoroliklar, o'z vakillarini yubordi. Yosh buxoroliklarning rasmiy vakillari sifatida Fitrat hamda Usmonxo'ja Orenburgga yo'l oladi, biroq Petrogradan amir va Yosh buxoroliklar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun maxsus komissiya yuborilganligidan xabar topgach, ular ortga qaytishadi.

Ayni vaqtda Petrogradagi Muvaqqat hukumatda ham bu holat borasida ikki xil qarash paydo bo'ldi. Tashqi ishlar vaziri P.N. Milyukov amirlikda islohotlar o'tkazish tarafdori bo'lsa, keyinchalik Bosh vazir bo'lgan A. F. Kerenskiy Buxoroning Rossiyaga qo'shib olish tarafdori edi. Rus rezidenti hisoblanmish Miller Buxoro amiri va qo'shbegi ishlab chiqqan manifest loyihasini taxrirlab, 20-mart kuni Muvaqqat hukumatning Tashqi ishlar vazirligiga jo'natdi. 1917-yil 7-aprelda farmon bir oz o'zgartirishlar bilan Amir Olimxon tomonidan xalqqa taqdim qilindi. Amir farmoni rus elchixonasi a'zolari, ulamolar ishtirokida o'qib eshittirildi. Bu farmon Yosh buxoroliklar tomonidan huquqsizlikdan ozod bo'lish uchun qo'yilgan ilk qadam deb qaraldi va xalqqa uning mazmunini yetkazish uchun mitinglar hamda namoyishlar o'tkazilish rejalashtirildi. Biroq Yosh buxoroliklar ichida bunga qarshilar guruhi shakllanib, partiya ichida o'zaro urush boshlandi. Natijada namoyishlar qonga botirilib, amir ko'pchiligini zindonga tashladi.³

Oktabr voqealaridan keyin Rossiya hamda Buxoro o'rtasidagi munosabatlar yomonlashdi. 1917-yil 2-dekabrda bo'lib o'tgan Buxoroda tashkil qilingan rus qishloqlarining vakillari II viloyat syezdini o'tkazishdi. Unda Rossiya va Turkiston hukumatining Buxoro ishlari bo'yicha hayati tuzildi. Yosh buxoroliklar partiyasi Fayzulla Xo'jayev boshchiligidagi delegatsiyani Toshkentga yubordi. Buxoroda ochiq qo'zg'olon uchun sharoit yetilgan edi. Unda o'ttiz ming kishi yig'ilishi taxmin qilindi.

1917-yil oktabr voqealaridan keyin Markaziy Komitet amir hokimiyatiga qarshi Sovet Rossiyasi bilan kelishib birlik frontini vujudga keltirish g'oyasini ilgari surgan edi. Kolesov rozilik bergan taqdirda, qo'zg'alonga tayyorgarlikni cho'zmasdan, ikki joyda Eski Buxoro va Karkida qurolli qo'zg'alonni boshlash, Kolesovning qizil gvardiyachilar otryadini yordamga yuborish, qurol-yarog' bilan ta'minlash kabi maqsadlar aks etgan dastur ishlab chiqilgan edi. Bu kelishuvga Kolesov rozi bo'lsada shoshilmay harakat qilish tarafdori edi. Sababi Qo'qon muxtoriyati tomonidan qilingan

² Медведев В. Нечаянная революция. Бухара, 1920 // "Дружба народов"-Москва, 1992, № 1

³ С. Н. Брежнева Исторриография проблемы присоединения Туркестанского края к России. Дис. Москва, 2005 - 32 ср

hatti-harakatlar edi. Komitetning bu harakatlari samarasiz tugadi. Bunga asosiy sabab, Kolesov tomonidan Yosh buxoroliklarga qurol-yarog‘ va yordamning o‘z vaqtida berilmagani, aholi Yosh buxoroliklarni qo‘llab-quvvatlamagani bo‘ldi.⁴

Turkiston o‘lkasining favqulodda komissari qilib tayinlangan Kobezovning shoxidlik berishicha, Stepanov va Koluzayev rahbarligidagi Toshkent-Perovsk otryadi Buxoroga qilgan hujumidan juda katta miqdorda musodara qilingan pul, sigir, ot va boshqalarni olib qaytdi. Ular ushbu boylikning bir qisminigina Respublika xazinasi va hukumatga topshirdi. Katta qismini esa o‘zlarida saqlashdi. Buxoro va Qo‘qondan Kolesov millionlab boyliklar olib kelib, bilganicha sarfladi, pullar daryoday oqib keldi, hech kim ularning hisobini so‘ramadi.”⁵

Shunday vaziyatda amir bilan Sovet hukumati o‘tasidagi anglashilmovchiliklar kuchaygan edi. Kazak qismlar Buxoroni qurol-yarog‘ bilan ta‘minlay boshladi. Bundan tashqari amir imkoni bor joylarning hammasidan qurol-yarog‘ olishga va rus ofitserlari yordamida armiya tuzishga harakat qildi. Tez orada Buxoro O‘rta Osiyoda juda xatarli revolutsion markaz bo‘ldi va bu holatni Sovet Toshkenti katta tahdid deb bilib, butun e‘tiborini Buxoroga qaratib, amirni qo‘llab-quvvatladi. Qo‘qondagi g‘alabasidan keyin Kolesov amir hukumatini ham yengillik bilan tugataman deb o‘ylagan edi. Ashxoboddan Toshkentga qayta turib, Kolesov Yosh buxoroliklarga harakatni boshlash haqida xabar berdi. Fayzulla Xo‘jayev rahbarligida Revolutsion Komitet ish boshladi. 1918-yil 1-martda 3500 kishilik qizil askarlar otryadi va pulemyotlar bilan yetib kelgan Kolesov dastlab, kengash o‘tkazib amirga xat bilan murojaat qiladi. Murojaat mazmunida, Yosh buxoroliklar talab qilgan islohotlar, ya‘ni:

- so‘z, matbuot va boshqa demokratik erkinliklar joriy qilinishi;
- amir huzuridagi hukumat tarqatib yuborilishi, uning o‘rniga Yosh buxoroliklar ijroiya Qo‘mitasidan iborat yangi hukumat tuzilishi;
- amirlikdagi qo‘shin qurolsizlantirilishi ko‘rsatilgan edi. Agar amir ushbu talablarga 24 soat ichida rozilik bersa, uning hokimiyati saqlab qolinishi aks etgan edi. Xat Kolesov va Fayzulla Xo‘jayev tomonidan imzolangan edi.⁶

Amir Olimxon yuborilgan ultimatumga aslida rozi ekanligini, biroq xal aksariyati oddiy va muttasib bo‘lganligi sababli bu islohotlar tezda amalga oshiriladigan bo‘lsa aholi noroziliklar ko‘tarishi mumkinligi va shu sababli bu loyihalarni asta-sekinlik bilan joriy qilish javobini berdi. Ko‘p o‘tmay amir ikkinchi xatni ham yubordi. Unda:

-yuborilgan ultimatlarning qabul qilinganligi, lekin qo‘shin shaharga kirmasligi;

⁴ А.Б. Вильданова. Подлинник Бухарского трактата о чинах и званиях “Письменное памятники Востока”. Ежегодник, 1968. М. 1970 – 17 ср

⁵ М.А.Сапронова Российские мусульмане: История и Современность на примере становления и развития мусульманской общины Санкт-Петербурга. Рецензии Москва, 2018 -96 ср

⁶ Лунёв Ю.Ф. Государство и право узбекских ханств. – М.: Аст, 2004 -115 ср

- Yosh buxoroliklar shaharda namoyish o'tkazmasligi;

-taklif qilingan talablar hozirning o'zidayoq bo'lmasada sekinlik bilan bajarilishi keltirilgan edi. Javob yozma tarzda bo'lsa ham, lekin amir unga imzo chekmagan edi.

⁷ Vaqtdan yutish deya qaralgan bu harakatlarning ertasiga yoq Kolesov otryadi va Yosh buxoroliklar hujum harakatini boshlashdi. Birinchi to'qnashuv Fathobod oldida boshlandi. Bu jangda qo'shinlari mag'lubiyatga uchraganini, xalq qurbon bo'layotganini ko'rgan amir, darhol Kolesovga xat yo'llaydi. Xatda hamma talablarga rozi ekanligi, ikkala tomondan ham behuda qurbonlar bo'lmasin deb, xujumni to'xtatishni so'ragan edi. Kolesov "Jang to'xtatilsin va Kogonga qaytilsin",-deya buyuruq berdi.⁸

Amir xarbiy qismlarning hammasini Buxoro atrofiga to'pladi. Mullalar bilan bir qatorda Buxoroning oddiy dehqonlari ham amirni qo'llab-quvvatladi. Amir tomonidan umumiy 35 mingga yaqin kishi edi. Amir Kolesovning Toshkent bilan aloqasini, Karmanadan Qorako'lgacha bo'lgan temiryo'lni to'xtatib qo'ydi. Bexuda to'pga tutishlardan so'ng Kolesov, Buxoroni bosib olish rejasi amalga oshmasligiga ko'zi yetgach, 5-mart kuni Toshkentga chekinishga buyuruq berdi. Bu harakatlar uchun tez orada 1500 ga yaqin odam jadid sifatida amir tomonidan jazolandi. Qolganlari esa temiryo'l yoqalab qochishdi. Qiziltepaga yetib borgan Kolesov amir bilan muzokaralar boshladi. Bu gal Kolesov delegatsiyasi o'z vakillaridan emas, balki sobiq chor hukumatining eski amaldorlari, Vvdenskiy, Haydar Hoji Mirbadalovdan iborat edi. Tez orada Yosh buxoroliklarga Koluzayev Toshkentdan yordamga kelib, Karmanani oldi. Kolesov amir bilan Qiziltepa kelishuvini imzolashga va taslim bo'lishga majbur bo'ldi. To'qqiz banddan iborat bitimga ko'ra, mustaqillikni himoya qilgan Buxoro amirligi o'z hududidagi harbiy harakatlar uchun javobgar deb hisoblandi va amir o'z sarbozlari sonini 12000 kishidan oshirmaslik majburiyatini oldi. Bu bitimdan shuni anglash mumkinki Buxoro amirligi faqat jabr ko'rgangina emas, aksincha o'z davlati hududidagi haraktalarga aybdor deb hisoblanib, tovon to'lashga majbur bo'ldi. Bu voqealar o'lkada siyosiy tuzumni o'zgartirish xarakatlarini hamda jadidlar faolligini oshirdi.⁹

1918-yil martidagi Kolesovning Buxoroga yurishi Buxoro amirligi bilan sovet Turkistoni munosabatlarining kelgusidagi holatini ko'p jihatdan oldindan belgilab berdi. Buxoro hukmdori Said Olimxon xorijdan hamkorlar izlashga majbur bo'ldi. Keyinchalik Said Olimxon bilan Junaidxon o'rtasida Rossiyaga qarshi ittifoq tuzildi. Amir Olimxon Yosh buxoroliklar bilan til topisha olmadi. Ularni ayamadan jazolab,

⁷ Ю.Н.Гладкий, К.Ю. Эйдемиллер Ислам в Санкт-Петербурге: Конвергенция во времени и пространстве. Глобализация: полемика цивилизаций. Санкт-Петербург, 2018 -74 ср

⁸ Р. Ю. Почекаев Российсий протекторат над Бухарой в оценках Бухарской элты конца XIX- начала XX в. Rudn journal of Law, 2017

⁹ А. Каппелер Россия-многонациональная империя. Москва, 1997 -82 ср

o'ldirtirib yubordi. Eski Buxoro, G'ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Qorako'l, Karmana, Xatirchi, Chorjo'y, Qarshi, Shahrisabz, Sherobod va Hisor beklklarida ham minglab insonlarni ayblab o'ldirtirdi. 1918-yil yettita mulani, yirik saroy a'yonlari ham o'ldirildi. Jumladan, atoqli ulamolardan Domla Ikrom, Buxoro qozikaloni Sharifjon Maxdumlar zindonga tashlandi.¹⁰

Xulosa qilib aytganda, Yosh buxoroliklar erta harakat qilib, bolsheviklarga ishonib qator kamchiliklarga yo'l qo'ydi. Ular darhol amirlik hududidan chiqib ketishga majbur bo'ldi. Ular Turkistondan panoh topishdi. Biroq Sovet Turkistoni ularga nisbatan dushmanlik munosabatida bo'lishdi, shu sabab ularning aksariyati ochlikdan vafot etishdi. Yosh buxoroliklar Samarqand, Toshkent va Moskvada faoliyat ko'rsatishga majbur bo'ldi. Bolsheviklar amirlik hokimiyatini ag'darishda ulardan mohirona foydalanishdi.

¹⁰ А. И. Пылев Политическое положение Бухарского эмирата и Хивинского ханства в 1917-1920 гг выбор путей развития- СПб Изд-во «Петербургское востоковедение», 2005 – 125 ср